


I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi 67 892,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 107,9 foizga teng bo'ldi.

YAHM deflyator indeksi 2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 120,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo'shgan hissasi 8,4 % ga yetdi.



Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) - milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident - institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

**2025-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**


	<i>Mlrd. so'm</i>		<i>o'sish sur'ati, % da</i>
	<i>2024- yil</i>	<i>2025- yil</i>	
I. YAHM, jami	52 356,6	67 892,1	107,9
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	51 894,4	67 320,0	107,9
mahsulotlarga sof soliqlar	462,2	572,1	108,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	51 894,4	67 320,0	107,9
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4 507,4	5 273,4	104,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	40 109,4	53 518,7	108,5
Sanoat	37 722,2	51 047,1	109,3
Qurilish	2 387,2	2 471,6	94,9
Xizmatlar	7 277,6	8 527,9	107,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 138,2	2 547,5	108,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 014,5	1 265,4	115,7
boshqa xizmat tarmoqlari	4 124,9	4 715,0	104,5

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, 2025-yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 61 777,4 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich 2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 6,1 % ga yuqoridir.

2025-yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning hajmi va o‘sish sur‘atlari diagrammasi





**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi**
(jamiga nisbatan % da)

	<i>Mlrd. so'm</i>	
	<i>2024-yil</i>	<i>2025-yil</i>
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	99,1	99,2
mahsulotlarga sof soliqlar	0,9	0,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	8,7	7,8
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	77,3	79,5
Sanoat	72,7	75,8
Qurilish	4,6	3,7
Xizmatlar	14,0	12,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4,1	3,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2,0	1,9
boshqa xizmat tarmoqlari	7,9	7,0

2025- yil yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 99,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 0,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 7,8 % ni, sanoat tarmog‘i 75,8 % ni, qurilish 3,7 % ni va xizmatlar sohasi 12,7 % ni tashkil qildi.

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o‘shishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘shish sur‘atlari bilan bog‘liqdir. O‘shish sur‘atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 104,0 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 7,8 %), sanoatda – 109,3 % (75,8 %), qurilishda – 94,9 % (3,7 %), xizmatlar sohasida – 107,3 % ni (12,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘shish sur‘atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 108,6 % (3,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 115,7 % (2,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,5 % dan (7,0 %) iborat bo‘ldi.

Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘shish sur‘atlari
(o‘tgan yilga nisbatan % da)

